



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

MINTAQAVIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI VA USTUVOR YO'NALISHLARI

Ro'zimatov Sanjarbek Qosimjon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Iqtisodiyot fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida mintaqaviy iqtisodiyotning shakllanishi, rivojlanish omillari, hududiy tafovutlar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. Tadqiqotda statistik ma'lumotlar asosida respublika viloyatlaridagi iqtisodiy o'sish, investitsiya faoliyati va sanoat salohiyati o'rganilgan. Natijalar mintaqaviy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda davlat siyosatining muhim rolini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: mintaqaviy iqtisodiyot, investitsiya, sanoat, infratuzilma, hududiy rivojlanish, iqtisodiy siyosat.

KIRISH

Mintaqaviy iqtisodiyot har bir mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini chuqurroq tahlil qilishga, hududlar o'rtasidagi tafovutlarni aniqlashga va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng, hududlar iqtisodiyoti alohida e'tibor markazida bo'lib kelmoqda.

Har bir viloyatning tabiiy, mehnat, transport va ishlab chiqarish resurslari turlicha bo'lgani sababli, ularning iqtisodiy rivojlanish sur'atlari ham bir-biridan farq qiladi. O'zbekistonning umumiy iqtisodiy o'sishida Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Navoiy, Farg'ona, Andijon va Samarqand viloyatlari yetakchi o'rinda tutadi. Shu bilan birga, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlarida iqtisodiy rivojlanish nisbatan sekin kechmoqda.

Bu esa mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirish siyosatini kuchaytirishni talab qiladi. So'nggi yillarda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida "Har bir hudud — bir iqtisodiy drayver" tamoyili asosida keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston mintaqaviy iqtisodiyotini rivojlantirishda asosiy e'tibor hududiy raqobatbardoshlikni oshirish, investitsiyalarni jalb etish, infratuzilmani yangilash va eksport salohiyatini kengaytirishga qaratilmoqda. Shu maqsadda 2025–2030-yillarga mo'ljallangan "Hududlarni kompleks rivojlantirish dasturi" ishlab chiqilgan.

Mavzuga doir adabiyotlar sharhi

Mintaqaviy iqtisodiyot masalalari jahon iqtisodiy adabiyotida uzoq tarixga ega. Bu yo'nalishda bir qator mashhur iqtisodchilar va olimlar hududlar rivojlanishi, resurslar taqsimoti va iqtisodiy markazlashuvning ijobiy hamda salbiy tomonlarini chuqur o'rganganlar. Masalan, A. Marshall (1890) o'zining "Iqtisodiy printsiplar" asarida "sanoat tumanlari" (industrial districts) tushunchasini kiritgan bo'lib, ishlab chiqarish korxonalarining muayyan hududlarda to'planishi mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga kuchli turtki berishini ta'kidlagan. W. Isard (1956) esa "Regional Science" yo'nalishiga asos solib,



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

hududiy iqtisodiyotni o'rganish uchun matematik va statistik modellarni qo'llagan. U hududlar o'rtasidagi iqtisodiy oqimlarni tahlil qilish orqali ishlab chiqarish markazlari va iste'mol bozorlarining o'zaro bog'liqligini aniqlagan. J. Friedman (1973) esa "Markaz va periferiya nazariyasi"ni ishlab chiqib, iqtisodiy o'sish avvalo yirik shahar markazlarida boshlanib, keyin chekka hududlarga tarqalishini tushuntirgan. Bu nazariya bugungi O'zbekiston sharoitida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Shuningdek, P. Krugman (1991) "Yangi iqtisodiy geografiya" nazariyasida ishlab chiqarish, transport xarajatlari va bozor hajmi o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, mintaqaviy iqtisodiyotning zamonaviy matematik asoslarini yaratgan. O'zbekiston iqtisodchilari orasida mintaqaviy iqtisodiyot, hududiy resurslardan samarali foydalanish, investitsion muhit va bandlik muammolarini chuqur o'rgangan bir qator tadqiqotchilar mavjud. A. Vahobov (2022) "Hududiy iqtisodiyot asoslari" asarida har bir viloyatning tabiiy, demografik va ishlab chiqarish resurslarini tahlil qilib, hududiy rivojlanishning barqaror modelini taklif etgan. Unga ko'ra, mintaqalararo tafovutlarni kamaytirish uchun "hududiy innovatsion markazlar"ni tashkil etish zarur. B. Tursunov (2021) o'z ilmiy ishlarida O'zbekiston mintaqalaridagi yalpi hududiy mahsulot (YHM) ko'rsatkichlarini tahlil qilib, iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri sifatida investitsiya oqimini ko'rsatgan. Sh. Mustafoev (2020) "O'zbekiston iqtisodiy hududlari rivojlanishining strategik yo'nalishlari" nomli tadqiqotida sanoat, transport va energetika infratuzilmasining mintaqaviy siyosatdagi rolini yoritgan. Iqtisodiyot va moliya vazirligi (2024-yil hisobotida) qayd etilishicha, 2017–2024-yillar oralig'ida 14 ta viloyatning 10 tasida sanoat ishlab chiqarishi hajmi o'rtacha 1,8 barobarga oshgan. Eng yuqori o'sish Navoiy, Toshkent va Samarqand viloyatlarida qayd etilgan. Xalqaro tajribada — masalan, Janubiy Koreya, Germaniya va Turkiya misolida — mintaqaviy rivojlanish siyosati asosan infratuzilma, ta'lim va innovatsion texnologiyalarni mintaqalarga teng taqsimlash orqali amalga oshiriladi. O'zbekistonda ham shunga o'xshash yondashuv shakllanmoqda. So'nggi yillarda "Hududlarni kompleks rivojlantirish dasturi (2022–2026)", "Yangi O'zbekiston – yangi imkoniyatlar" strategiyasi doirasida har bir viloyat bo'yicha alohida investitsiya dasturlari ishlab chiqilgan. Masalan, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida energetika va qishloq xo'jaligi loyihalari; Navoiy va Jizzaxda — sanoat zonalari; Samarqand va Farg'onada — xizmat ko'rsatish va turizm klasterlari tashkil etildi. Bu esa mintaqaviy iqtisodiyotning barqarorlik darajasini oshirish bilan birga, hududiy nomutanosiblikni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Mintaqaviy iqtisodiyot — bu faqat iqtisodiy resurslarni taqsimlash tizimi emas, balki ijtimoiy barqarorlikning asosiy garovidir. Jahon tajribasi hududlararo muvozanatni ta'minlash uchun innovatsion markazlar, sanoat klasterlari, transport-logistika tarmoqlarini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. O'zbekiston olimlari esa ushbu nazariyalarni milliy sharoitga moslashtirib, mintaqalar salohiyatidan to'liq foydalanish g'oyasini ilgari surishgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston mintaqaviy iqtisodiyotining hozirgi holati, hududlar kesimidagi iqtisodiy o'sish sur'atlari, investitsiya faolligi va sanoat ishlab chiqarish hajmlari



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

tahlil qilindi. Tadqiqotda foydalanilgan ma'lumotlar asosan O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Markaziy bank, hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy hisobotlariga asoslanadi.

Tahlil jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Statistik tahlil metodi.

Har bir viloyatning YAIM, sanoat mahsuloti, ish haqi, investitsiya hajmi va ishsizlik darajasi kabi ko'rsatkichlar o'rganildi. Bu ma'lumotlar asosida mintaqalar o'rtasidagi tafovutlar aniqlanib, ularning sabablari izohlandi.

3. Grafik tahlil.

Olingan raqamlar asosida diagramma va grafiklar tuzilib, iqtisodiy o'sish sur'atlari va hududlar bo'yicha farqlar vizual tarzda ko'rsatildi.

4. Tizimli yondashuv.

Har bir mintaqada iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi ichki (resurs, infratuzilma, kadr salohiyati) va tashqi (investitsiya, logistika, eksport) omillar kompleks tarzda ko'rib chiqildi.

Tadqiqotning obyekti va predmeti

Obyekt: O'zbekiston mintaqalari (viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasi) iqtisodiy faoliyati.

Predmet: Mintaqaviy iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillar, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlar va ularni kamaytirish mexanizmlari.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari

Maqsad — O'zbekiston mintaqalarining iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini tahlil qilish, ularning o'zaro farqlarini aniqlash va barqaror o'sishni ta'minlash yo'llarini ishlab chiqish.

Asosiy vazifalar:

1. Hududlar iqtisodiy salohiyatini aniqlash.

2. Investitsiya va ishlab chiqarish hajmlarini tahlil qilish.

3. Mintaqalar o'rtasidagi farqlarni kamaytirish uchun takliflar ishlab chiqish.

4. Mintaqaviy siyosat samaradorligini baholash.

Natija va muhokama

O'zbekiston mintaqaviy iqtisodiyoti so'nggi yillarda barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda.

Hududlar bo'yicha iqtisodiy o'sish dinamikasi

O'zbekiston iqtisodiyotining mintaqaviy tahlili shuni ko'rsatadiki, Toshkent shahri, Navoiy, Farg'ona, va Samarqand viloyatlari yetakchi o'rinlarni egallamoqda.

Ko'rinib turibdiki, poytaxt va industrial markazlar (Toshkent, Navoiy) iqtisodiy o'sishda yetakchilik qilmoqda. Qoraqalpog'iston va ayrim chekka hududlarda o'sish sur'atlari nisbatan past, bu infratuzilma, transport-logistika va investitsiya oqimi bilan bog'liq.

Sanoat ishlab chiqarish hajmining mintaqalar kesimidagi tahlili

2020 2021 2022 2023 2024

O'zbekiston Respublikasi 368740,2 456056,1 553265 658991,7
880198,5



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

Qoraqalpog'iston Respublikasi	13981,3	16630,4	17624,7	17791,1
24323,5				
Andijon viloyati	36376,5	35935,3	54352,5	73767,1
Buxoro viloyati	17574,4	20772,1	27202,4	31860,4
Jizzax viloyati	5823,8	8731,8	11402	19197,3
Qashqadaryo viloyati	14612,3	18771,9	22624,4	28767,7
Navoiy viloyati	65084,9	73633,5	84393,7	101841,9
Namangan viloyati	11011,9	14695,1	18120,5	21906,8
Samarqand viloyati	18383,4	22834,3	29188,6	32955,7
Surxondaryo viloyati	5322,7	6675,3	7229,8	8848,6
Sirdaryo viloyati	7990,9	99813,3	12011,2	15348,1
Toshkent viloyati	65949,9	83433,9	93935,1	106915,3
Farg'ona viloyati	21701,2	27761,5	30303,5	35794,9
Xorazm viloyati	9615,9	13658,1	18323,3	21589,1
Toshkent shahri	66188	90211,9	108807,7	124116,4
Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (yillik)				171706,2

O'zbekiston mintaqaviy iqtisodiyotining rivojlanishida so'nggi yillarda ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Hududlarda infratuzilma yangilanmoqda, sanoat zonalarida tashkil etilmoqda, eksport salohiyati oshmoqda. Biroq tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatda iqtisodiy o'sish sur'atlari mintaqalar bo'yicha notekis kechmoqda.

Mintaqaviy tafovutlarning sabablari

O'zbekistonning ayrim mintaqalarida iqtisodiy faollik yuqori, boshqalarida esa pastligining asosiy sabablari quyidagilardir:

Sanoat infratuzilmasining notekis joylashuvi.

Toshkent, Navoiy va Farg'ona viloyatlarida yirik sanoat korxonalari mavjud bo'lsa, Surxondaryo, Qoraqalpog'iston kabi hududlarda ishlab chiqarish salohiyati nisbatan sust.

Transport-logistika infratuzilmasi farqlari.

Markaziy va g'arbiy mintaqalarda avtomobil va temir yo'l tarmoqlari rivojlangan, chekka hududlarda esa yuk tashish imkoniyatlari cheklangan. Bu investitsiyalarni jalb etishni qiyinlashtiradi.

Investitsion muhit va biznes sharoitlarining farqi.

Toshkent shahri va Navoiy viloyati yuqori investitsion jozibadorlikka ega bo'lib, xorijiy sarmoyadorlar bu hududlarga ko'proq qiziqmoqda.

Aksincha, ayrim viloyatlarda kadrlar malakasi pastligi va bozor sig'imi cheklanganligi sababli yangi korxonalar kamroq tashkil etilmoqda.

Aholi zichligi va iste'mol bozori hajmi.

Farg'ona vodiysi viloyatlarida aholi ko'p, shuning uchun xizmat ko'rsatish sohasi va ichki bozor rivojlangan. Ammo Qoraqalpog'iston va Navoiyda aholi kamligi iste'mol talabining past bo'lishiga olib keladi.

Tabiiy resurslardan foydalanish darajasi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

Navoiy, Qashqadaryo va Buxoro tabiiy resurslarga boy. Shu sababli bu hududlarda kon sanoati va energetika tarmoqlari rivojlangan. Boshqa mintaqalarda esa iqtisodiyot ko'proq qishloq xo'jaligiga tayanadi.

Davlat siyosati va islohotlarning ta'siri

So'nggi yillarda O'zbekiston hukumati mintaqaviy iqtisodiy nomutanosibliklarni kamaytirish maqsadida qator strategik dasturlarni amalga oshirmoqda:

"Hududlarni kompleks rivojlantirish dasturi (2022–2026)" asosida 10 mingdan ortiq yangi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish loyihalari ishga tushirildi.

"Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi doirasida har bir viloyatning "drayver tarmoqlari" aniqlanib, ularni rivojlantirish uchun imtiyozli kredit va soliq yengilliklari joriy qilindi.

2024-yilda Hududiy investitsiya jamg'armalari tashkil etilib, ular mintaqaviy loyihalarga qo'shimcha moliyalashtirish manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

Bu islohotlar natijasida mintaqalar iqtisodiy mustaqilligi va tashabbuskorligi oshib bormoqda.

Rivojlanish istiqbollari va xavf omillari

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston mintaqaviy iqtisodiyoti barqaror o'sish bosqichida bo'lsa-da, ayrim xavf omillari saqlanib qolmoqda:

Nomutanosib infratuzilma — chekka hududlarda elektr energiyasi, transport va internet tarmoqlari yetarli darajada rivojlanmagan.

Kadrlar muammosi — yuqori malakali mutaxassislarning poytaxtga migratsiyasi hududlarda malaka yetishmovchiligiga sabab bo'lmoqda.

Tabiiy resurslarga haddan ziyod tayanish — ayrim mintaqalarda iqtisodiyotning diversifikatsiyasi sust kechmoqda.

Ekologik muammolar — Oollbo'yi hududlarida ekologik inqiroz iqtisodiy rivojlanishni cheklab turibdi.

Shu bois kelgusida mintaqaviy iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishi barqaror va muvozanatli rivojlanishga qaratilishi lozim.

Tahlilning asosiy xulosalari

1. O'zbekiston mintaqalarida iqtisodiy o'sish sur'atlari barqaror, biroq notekis.
2. Yetakchi hududlar — Toshkent, Navoiy, Samarqand va Farg'ona viloyatlari.
3. Investitsiyalar mintaqaviy rivojlanishning eng kuchli omili hisoblanadi.
4. Mehnat bozori, infratuzilma va sanoat zonalarini diversifikatsiya qilish zarur.
5. Hududiy siyosat natijalari sezilarli bo'lishi uchun iqtisodiy va ijtimoiy muvozanatni saqlash muhim.

Xulosa va takliflar

Har bir mintaqqa uchun alohida iqtisodiy ixtisoslashuv strategiyasi ishlab chiqish kerak. Past iqtisodiy salohiyatga ega hududlarga soliq imtiyozlari berish lozim. Sanoat zonalarini va logistika markazlarini kengaytirish mintaqaviy nomutanosiblikni kamaytiradi. Aholining



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

bandligini oshirish orqali ichki iste'mol bozorini kengaytirish zarur. Yangi axborot texnologiyalarini hududiy ishlab chiqarish va boshqaruv tizimiga joriy etish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari (2024-yil).
2. Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy axboroti, 2024-yil.
3. Friedman J. Regional Development and Planning, MIT Press, 2019.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli Farmoni, 2022-yil
"Hududlarni kompleks rivojlantirish to'g'risida"
5. A. Vahobov. Hududiy iqtisodiyot asoslari, T.: Iqtisodiyot, 2022.